Andijon viloyati Xonobod shahri o’rnida qaysi madaniyat vakillari yashagan?

Farg’ona vodiysi va ayniqsa uning sharqiy xududlari oxirgi 100 yil davomida sharqshunos va qadimshunos olimlar e’tiborini o’ziga tortib kelmoqda. Zero, bu yerda ilk ziroatkor ajdodlarimiz bundan 3500 yil oldin sun’iy sug’orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug’ullanib, eng sodda uslublardan boshlab, murakkab suv inshootlarini barpo qilish vositasida dalalarga bir maromda suv taqsimot qilish orqali hosildorlikni oshirib borishgan. Biroq bu hududda bobodehqon ajdodlarimizdan tashqari xo’jalikda uy hayvonlarini yetishtirib kelgan va ko’chib yurish hayot tarzini afzal ko’rgan bobokalonlarimiz ham umrguzaronlik qilishgan. Shu tariqa, ming yilliklar davomida vodiyning o’troq (Chust va Sho’raboshot madaniyatlari) va ko’chmanchi (Qayroqqum va Eylaton madaniyatlari) aholisi o’zaro hamjihatlikda miloddan avvalgi XIV asrdan – milodiy birinchi asrlarda hayot kechirganlar va o’z hayotiy tajribalarini avlodlariga qoldirganlar. Albatta, bu hayot tarzi va fikrlashi turlicha bo’lgan ikki madaniyatlar orasidagi munosabatlar hamisha ham tinch-totuvlikda o’tgan deyish noto’g’ri va buni tasdiqlovchi bir qator arxeologik faktlar mavjud. Shunday bo’lsada, bu ikki xil madaniyat sohiblari doimo murosa yo’lini izlashganliklari ham dala tadqiqotlari davomida topilgan ko’plab topilmalar vositasida ilmiy asoslangan.

Andijon viloyatining Qo’rg’ontepa tumanida oxirgi 7 yil davomida olib borilgan izlanish natijalarimizga ko’ra vodiydagi ilk sun’iy suv inshootlari qadimgi buloqlar o’zanini birlashtirish orqali shaklantirilib, bir necha 100 metrdan 120 kmgacha uzoqlikka yetadigan soylargacha barpo etib ishlatilgan. Ajdodlarimiz bunyod etgan bu inshootlarning eng yiriklari – Shahrixonsoy (118 km) va Andijonsoy (60 km) bo’lib ularning boshlanishi Xonobod shahrini Qirg’izston bilan chegaradosh hamda Tyan-Shan tog’ tizmasining janubi-g’arbiy etaklarini qamragan hududdan oqib o’tadigan Qoradaryodan olingan.

Shu sababli O’zR FA Milliy arxeologiya markazidan dala tadqiqot guruhi safarbar etilib, tog’ yonbag’ridagi buloqlar va ular bilan bog’liq qadimiyatga daxldor faktlarni o’rganish vazifa qilib qo’yildi.

Izlanishlarning dastlabki jarayonida hudud (Tyan-Shan tog’ tizmasini janubi-g’arbiy qismi va uning etaklari) piyoda o’tib ko’rib chiqildi va natijada quyidagilar aniqlandi:

- tog’ning bu etagining balandligi dengiz sathidan 1022 m;

- eng yuqorida aniqlangan buloq dengiz sathidan 848 m balandlikda qayd etilib, suvning ta’mi shirin;

- dengiz sathidan 842 m balandlikda ikkinchi buloq qayd etilib, suvning ta’mi chuchuk;

- uchinchi buloq dengiz sathidan 791 m balandlikda qayd etilib, suvning ta’mi sho’r;

- o’rganilayotgan hududning janubiy etagida qadimgi manzilgoh va qabrqo’rg’on o’rinlari hamda ulardan 3-4 km shimolda boshqa manzilgoh o’rni qayd etildi;

- ma’lum vaqt qayd etilgan qabrqo’rg’on o’rnida mahalliy aholi tomonidan xo’jalik ishlari olib borilganligi tufayli o’nlab asori atiqalar topilgan va uy muzeyida saqlangan;

- buloqlar atrofida ko’plab qizil rangli minerallar uchraydi.

Dastlabki tadqiqotlar so’nggida qo’lga kiritilgan sopol idishlar qiyosiy tahlil qilindi va unga ko’ra quyidagi ilk xulosalar shakllandi:

Sopol idishlarning aksariyati qo’lda yasalgan va ayrimlari bo’yoq bilan naqshlangan hamda davriy jihatdan miloddan avvalgi VII asrdan – milodiy VII asrlargacha qayd etilgan. Sopollar kompleksida charxda tayyorlangan nusxalari ham mavjud bo’lib, ular davriy jihatdan milodiy birinchi asrlardan – milodiy XII asrlargacha yashab kelgan madaniyat sohiblariga tegishli bo’lgan. Demakki, qayd etilgan sopollar to’plamidan ko’rinib turibdiki, bu hududda ajdodlarimiz sal kam 19 asr mobaynida umrguzaronlik qilishgan. Yuqorida keltirganimizdek, sopol idishlarning bir qismi ko’chmanchi madaniyat vakillariga tegishli bo’lsa,

boshqalari o’troq hayot tarzini maqbul ko’rgan ajdodlarimizga tegishli bo’lgan.





Ayrim topilmalarning o’ziga xosligi shundaki, ularning shakli Eylaton madaniyatiga xos bo’lsa, sirtiga tushirilgan naqshlar Chust va Sho’raboshot madaniyatlariga xosdir. Bu esa turli madaniyat sohiblari bo’lgan qadim ajdodlarimizning o’zaro yaqin aloqadaligi va o’zaro qorishib borayotganligining hosilasidir. Shu tufayli, aniqlangan manzilgoh va qabrqo’rg’onlar keng qamrovli tarzda o’rganilishi va topilmalar qiyosiy tahlil etilishi zarurdir. Zero, tadqiqot natijalari Farg’ona vodiysi qadim madaniyatlari borasidagi bir qancha muammoli xalqalarning yechilishi hamda zarurat bo’lsa, mintaqamiz qadimiyatiga daxldor hodisalarni tarix muhlislariga oydinlashtirib yetkazilishiga yordam berishi bilan birga vodiyning sharqiy hududlari, jumladan, Xonobod shahri o’rnining ajdodlarimiz taraqqiyotidagi rolini belgilab berishda

muhimdir.